



## Boshlang'ich Sinf O'quvchilari Nutqida Neyrolingvistikaning O'Ziga Xos Xususiyatlari

**Akbarova Zuhro Akmaljonovna**

FarDU, filologiya fanlari doktori, professor

**Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi**

FarDU, o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida neyrolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari, neyrolingvistik rivojlanishda tilning leksik imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlari, bolalar nutqiy rivojlanishida ma'nodosh so'zlarni o'rganishga kognitiv yondashuvning ahamiyati haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** neyrolingvistik rivojlanish, nutqiy savodxonlik, til ta'limi, kognitiv yondashuv, kognitiv tahlil, kognitologiya, ma'nodosh so'zlar.

Bugungi kunda dunyoda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada o'quvchilarning nutqiy savodxonligini har tomonlama rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonlik darajasini takomillashtirish ustida tizimli hamda maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy savodxonlikni rivojlantiruvchi ta'limiy jarayonni tashkil etishning pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, o'quvchilar savodxonlik darajasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'limga keng joriy etish, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish, ularda mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda neyrolingvistika muhim yo'nalish hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim mazmuni shu jumladan, til ta'limi mazmuniga kognitiv yondashuv umumiy ta'lim mazmunini belgilaydi. Til ta'limida o'z navbatida, til va tafakkur bog'liqligiga tayanish juda muhimdir. Insoniyat qadim zamonlardan beri bilim va tushunish muammolariga qiziqib kelgan. Insonning bilim va tajribasi qayerda va qanday saqlanishi haqidagi savollarni o'rganish uchun zamonaviy fanlararo yondashuv sifatida kognitiv yondashuvni belgilab berdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, tilshunoslik va tibbiyot chorrahasida miyya va til o'rtasidagi aloqani o'rganish neyrolingvistik ilmiy tadqiqod markazlarida olib boriladi. Bu markazlarda olib borilgan kuzatishlar bolalarning o'sish jarayonida ularning aqliy rivojlanishini miyyaning umumiy faoliyati bilan bog'lanishni nazarda tutadi. Farg'ona davlat universitetida bajarilayotgan "Milliy neyrolingvistik tashxislash metodikasini yaratish"<sup>2</sup> loyihasi bolalarning hissiy, aqliy va nutqiy rivojlanishda o'z ona tilini o'zlashtirishi muhimligi va nutqiy rivojlanishda tilning leksik imkoniyatlaridan o'z yoshi imkoniyatlariga mos tarzda, innovatsion yo'nalishda o'rganishga muhtojligini ko'rsatmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

<sup>2</sup> Neyrolingvistika-muham ilmiy yo'nalish. Z.A.Akbarova. "Yangi Farg'ona" 22.11.2023. N93.



Ma'lumki, kognitologiya tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda, lug'atlarda turli ta'riflar keltirilgan. Masalan, tilshunos olim Sh.Safarov kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'zi bilan bog'liq. (Qiyoslang: "cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq", "cognition – bilish"). Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (latincha), ya'ni "aql, tafakkur" hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki "cogitorium" – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Shuni unutmash lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir.<sup>3</sup>

Fanlarni o'rganishga kognitiv yondashuv bilimlar to'g'risidagi bilim olishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishi bilim olish, olingan bilimni qayta ishlash, saqlash va uni amalda qo'llay olish bilan bog'liq muammolarga qaratilgan. Bu kabi muammolar insonlar xulq-atvorida va eng muhimi, ularning tafakkurida va muloqot jarayonlarida o'zlashtirilgan bilimdan foydalanishni tavsiflovchi tartib-qoidalarga taalluqlidir. Biroq, inson bilimlari va bilish jarayonlarida til va undagi hodisalarga alohida e'tibor berilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda insonning nutq va tafakkur faoliyatida bilish jarayonining alohida o'rni ta'kidlab o'tilgan. Fanlarni o'qitishga yangi yo'nalishdagi yondashuvlarning kirib kelishi inson bilimlariga oid an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Kognitiv tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda istiqbolli uslubga aylanib bormoqda. Bu tahlil va yondashuvda umumiy tamoyillar asosida bilish jarayonining murakkabligini, ilmiy nazariyaning shakllanishini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish mumkin emas. Ma'lumki, fanlar orasida alohida insonni o'rganuvchi fan yo'q, shuning uchun ham inson haqidagi fanlarni yagona tizimga birlashtirish zaruriyati kundan-kunga sezilib bormoqda. Shu munosabat bilan hozirgi kunda tabiiy, ijtimoiy va texnikaviy fanlarni sintez qilish nuqtai nazaridan ilmiy bilimlarni integrasiyalash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, kognisiya jarayonini tadqiq etish inson o'zlashtirgan bilimlar va uning tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liq holda insonni o'rganishga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarga qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirib borishga bo'lgan intilishlari kognitiv jarayon sifatida baholanadi. O'quvchilar atrofda real voqeliklar va narsa-hodisalar mazmunini o'zida aks ettirgan ma'nodosh so'zlarning o'zaro farqlab turuvchi belgilari mavjudligini lisoniy ko'nikmalarga tayangan holda farqlay boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodosh so'zlarni kognitiv yondashuv asosida o'rgatish o'quvchilarda nutqiy va lingvistik ko'nikmalarni shakllantiradi. "Ona tili" va "o'qish savodxonligi" darsligida berilgan mashq va topshiriqlar o'quvchilarni nafaqat mustaqil, ijodiy fikrlashga yo'naltiradi, balki ma'nodosh so'zlarni mukammal o'rganishni ta'minlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib, nafaqat kognitiv tilshunoslikning, balki kognitiv psixologiyaning eng asosiy va muhim mavzularidan biri til bo'lib, bunda til, ona tilining bilish jarayonidagi vazifalari, shu tilning qolipi, (model) til va nutq ko'nikmalari, (kompetensiya) tilni egallash qobiliyati, nutqning paydo bo'lishi hamda uni anglash kommunikativ faoliyatning kognitiv modeli va ichki bilimlar tizimi sifatida o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kognitologiya fan sifatida dunyo haqidagi ma'lumotlar bilan shug'ullanib, inson mavjudligi, dunyoni idrok etish va inson ongida idrok

<sup>3</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. O'quv qo'llanma. Jizzax: «Sangzor» nashriyoti, 2006.- 10 b.



etilayotgan olamning aks etishi, ong, xotira hamda insonning bilish qobiliyati kabi hodisalarni o'rganadi. Fanlarga kognitiv yondashuv bevosita bilim va bilishga murojaat qilishdir. Ko'pgina tadqiqotchilar kognitologiyaning fanining asosiy vazifasini "nisbatan cheklangan qobiliyatlarga ega bo'lgan odamning cheklangan vaqt oralig'ida juda katta hajmdagi bilimlarni qanday qayta ishlash, o'zlashtirish, o'rganish va o'zgartirishga qodirligini tushunish deb biladi"<sup>4</sup> So'nggi yillarda maktab ta'limining zamon talablari asosida rivojlanib borayotganligi, o'quvchilarning ta'lim olishlariga yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda. Shuning uchun ona tilini o'qitishda turli usul va yo'llardan samarali foydalanishning keng imkoniyatlarini topish boshlang'ich ta'limning ham muhim vazifalaridan biri hisoblanib, o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni o'zlashtirish, interpretasiya qilish, shu bilan birga ularni nutq jarayonida qo'llashga o'rgatish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot va fikrlash jarayonida ma'nodosh so'zlardan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ma'nodosh so'zlarni o'zlashtirib borilishi bilan birga ularni nutqda qo'llay olishga o'rganilishi, ma'nodosh so'zlar qatoridan neytral va eksperssiv bo'yoqdorlikka ega so'zlarni tanlay olishi ularga nutqni rivojlantirish va tafakkurni kengaytirish kabi imkoniyatlarni beradi. Xulosa qilib aytishimiz mukinki, bugungi jadal rivojlanayotgan jamiyat boshlang'ich ta'lim oldiga asosiy vazifa sifatida – o'quvchilar tafakkurini kengaytirish va ularning nutqini rivojlantirishni qo'ymoqda. Chunki faqat nutqni neyrolingvistik tarafdin rivojlantirish orqaligina fikrlash, tasavvur, g'oyalar, shuningdek, bola shaxsiyatini rivojlantirish mumkin. O'z fikrini to'g'ri, aniq va chiroyli ifodalay olish bolalardan ham til ham psixologik tomondan rivojlantirishning zarur shartlaridan biridir. Yuqoridagilarning barchasiga tilning lug'aviy boyligini, turli grammatik vositalarni to'liq o'zlashtirish bilan erishiladi.

#### **Foydalanilgan nadabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Neyrolingvistika-muhim ilmiy yo'nalish. Z.A.Akbarova. "Yangi Farg'ona" 22.11.2023. N93.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. O'quv qo'llanma. Jizzax: «Sangzor» nashriyoti, 2006.- 10 b.
4. Kubryakova, Ye. S. Mentalны лексикон // Ye. S. Kubryakova, V. Z. Demyan-kov, Yu. G. Pankras, L. G. Luzina // Kratkiy slovar kognitivnykh termi-nov / pod общ. red. Ye. S. Kubryakovoy. — Moskva: Izdatelstvo MGU, 1996. – 245 s.

<sup>4</sup> Kubryakova, Ye. S. Mentalны лексикон // Ye. S. Kubryakova, V. Z. Demyan-kov, Yu. G. Pankras, L. G. Luzina // Kratkiy slovar kognitivnykh terminov / pod общ. red. Ye. S. Kubryakovoy. — Moskva: Izdatelstvo MGU, 1996. – 245s